

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Tar.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XOLIQULOV SHUXRATJON BOYMAXAMMADOVICH

O‘ZBEKISTONDA YENGIL VA OZIQ-OVQAT SANOATI
RIVOJLANISHINING TARIXIY TAHLILI
(Navoiy viloyati misolida, 1991–2023-yy.)

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Xoliqulov Shuxratjon Boymaxammadovich

О‘zbekistonda yengil va oziq-ovqat sanoatining rivojlanishining tarixiy tahlili
(Navoiy viloyati misolida, 1991–2023-yy.).....3

Халикулов Шухратжон Боймахамадович

Исторический анализ развития легкой и пищевой промышленности
Узбекистана (1991–2023 гг. на примере Навоийской области).....27

Khalikulov Shukhratjon Boymakhammadovich

Historical analysis of the development of light and food industry in Uzbekistan
(1991–2023 in the case of Navoi region)54

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works58

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Tar.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XOLIQULOV SHUXRATJON BOYMAXAMMADOVICH

O‘ZBEKISTONDA YENGIL VA OZIQ-OVQAT SANOATI
RIVOJLANISHINING TARIXIY TAHLILI
(Navoiy viloyati misolida, 1991–2023-yy.)

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Tar2042 bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasiga (www.buxsu.uz) hamda "ZiyoNET" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Botirova Halima Eshmamatovna

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Aminova Aziza Marksova

tarix fanlari doktori, dotsent

Raupov Sohob Saidovich

tarix fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.TAR.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «___» _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14, faks: (99865) 221-27-07).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil «___» _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)



A.T.Ochilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

B.B.Boltayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kengashi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.R.Rahimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida aholini ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari hamda sifatli yengil sanoat mahsulotlari bilan ta'minlash masalasi BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlari doirasida global muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi talablarning ortib borishi oziq-ovqat va yengil sanoat korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy, energiya tejamkor va yuqori samaradorlikka ega texnologik uskunalari bilan muntazam ravishda qayta jihozlab borishni taqozo etmoqda. Shu boisdan, ijtimoiy yashash turmush uchun mahsulot sifatini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash masalalarini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Dunyoning rivojlangan davlatlari oliy ta'lim muassasalari va yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida yengil va oziq-ovqat sanoatlari taqchilligi, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati va global oziq-ovqat muammolarini o'rganish maqsadida samarali izlanishlar olib borilmoqda. Natijada, sanoat rivojlanishi, jumladan yengil va qayta ishlash sanoati modernizatsiyasi, Oziq-ovqat va yengil sanoat mahsulotlarining xalqaro savdosini tartibga solinishi, qishloq hududlarida oziq-ovqat ishlab chiqarish va agrosanoat rivojlanish tarixiga doir bir qancha ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Shunday bo'lsada, yengil va oziq-ovqat sanoatlaridagi tarkibiy o'zgarishlar, o'sib borayotgan aholi ehtiyojlari bilan bog'liq masalalarni hal qilish, ushbu tizimni doimiy monitoring qilib borish imkoniyatini tarixan tahlil qilish zaruriyati mavjud.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tufayli yengil va oziq-ovqat sanoatlarini yanada rivojlantirishga katta zamin yaratildi. "Navoiy sanoati deganda asosan Navoiy kon-metallurgiya kombinati, "Navoiyuran", "Navoiyazot", "Qizilqumsement" kabi yirik tarmoq korxonalari nazarda tutilar, investitsiya ham, ish o'rinlari ham, iqtisodiy o'sish ham aynan shu korxonalar faoliyatiga bog'liq edi. Hududlarni kompleks rivojlantirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va yangi o'sish nuqtalarini aniqlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijasida 2025-yilda yirik tarmoq korxonalariga bog'liq bo'lmagan hududiy investitsiyalar jalb qilindi"¹. Yangi marralarni egallash, zamonaviy korxonalarni ko'paytirish orqali paxta xomashyosini qayta ishlash, tayyor mahsulot eksportini kengaytirish, yengil va oziq-ovqat sanoatlari uchun zarur bo'lgan jahon andozalariga mos ilg'or innovatsiyalarni joriy qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb masala hisoblanmoqda.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 16-sentabrdagi "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyev 2026-yil 10-fevral kuni Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan yig'ilish nutqidan. Url: <https://president.uz/oz/lists/view/8930>

chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4453-son qarori, 2024-yil 12-dekabrda PQ-430-son "Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2024-yil 12-dekabrda PQ-430-son "Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2026-yil 11-fevralda PQ-58-son "2026-yilda Navoiy viloyatini barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va sohani rivojlantirishga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Muammoni ilmiy tadqiq etish darajasini aniqlashda mavzuga oid adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlarini ikki guruhga ajratib tahlil etish maqsadga muvofiq. *Birinchi guruhga* mustaqillik yillarida mavzuga doir e'lon qilingan ishlar, *ikkinchi guruhga* bevosita tadqiqot doirasidagi xorijiy ilmiy ishlar kiritilgan. Har bir davlatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi sanoat, xususan, aholining kundalik hayotiy ehtiyojini qondiruvchi yengil va oziq-ovqat sanoatlari tarixi nafaqat tarixchilar, balki iqtisodchilar diqqat-e'tiborida ham asosiy tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Birinchi guruh adabiyotlari va ilmiy tadqiqotlari mustaqillik yillarida yaratilgan bo'lib, ularda yengil va oziq-ovqat sanoatlarida amalga oshirilgan islohotlar, soha muammolari va uning yechimiga doir masalalar o'z aksini topgan².

Navoiy viloyati yengil va oziq-ovqat sanoatlarini tadqiq etish borasida R.M.Qarshiyev ilmiy tadqiqotlarida 1958–1990-yillar kesimida³, M.Vohidova O'zbekistonda tadbirkorlikning rivojlanishida xalqaro iqtisodiy integratsiyaning ta'siri (Navoiy viloyati misolida)⁴, F.U.Shamiyev xorijiy sarmoya jalb etish jarayonini faollashtirish (Navoiy viloyati sanoati majmui misolida)⁵, G.I.Norquvvatova "Mintaqada yengil sanoatni rivojlantirish va hududiy tashkil

² Абдуллаев А.Ш. Озиқ-овқат саноати ривожланиши ва жойланишининг иқтисодий географик хусусиятлари (Хоразм вилояти мисолида): геог. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. – Урганч, 2017; Зиявитдинова Н.М. Озиқ-овқат саноати корхоналари фаолияти иқтисодий самарадорлигини ошириш (Бухоро вилояти мисолида): иқт. фанл. номз. ... дисс. – Бухоро, 2006; Юсупов С.Ш. Кучли рақобат шароитида тўқимачилик саноати корхоналарини ривожлантириш стратегиялари: иқт. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. – Тошкент, 2018; Қаршиев Р.М. Навоий шаҳрининг иқтисодий-ижтимоий ва маданий тараққиёти: тажриба ва муаммолар (1958–1990 йй.): тар. фанл. номз. ... дисс. – Андижон, 1996. – 147 б.; Пардаев Т.Н. Перспективы развития аграрного сектора региона в условиях перехода к рыночной экономике (на примере Навоийской области): дисс. ... канд. экон. наук. – Ташкент, 1996. – 124 с.; Кабулов С.К. Организационно-экономический механизм управления экономикой региона в условиях рынка (на примере Навоийской области): дисс. ... канд. экон. наук. – Ташкент, 1999. – 114 с.; Аминова А. Исторический анализ экономических преобразований в Навоийской области (1991–2007 гг.): автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 2012. – 29 с.

³ Қаршиев Р.М. Навоий шаҳрининг иқтисодий-ижтимоий ва маданий тараққиёти: тажриба ва муаммолар (1958–1990 йй.): тар. фанл. номз. ... дисс. – Андижон, 1996. – 147 б.

⁴ Воҳидова М. Ўзбекистонда тadbirkorlikning ривожланишида халқаро иқтисодий интеграциянинг таъсири (Навоий вилояти мисолида): иқт. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 48 б.

⁵ Шамиев Ф.У. Хорижий сармоя жалб этиш жараёнини фаоллаштириш (Навоий вилояти саноати мажмуи мисолида): иқт. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 127 б.

etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Navoiy viloyati misolida)⁶ tegishli mavzularda dissertatsiyalar himoya qilganlar.

Respublikada mustaqillik yillarida yengil va oziq-ovqat sanoatlari tarixini hududlar kesimida o'rganishga bag'ishlangan bir qator ilmiy ishlar vujudga keldi⁷. Jumladan, A.G'.Abdullayevning ilmiy izlanishlari Xorazm viloyatida mazkur tarmoqning iqtisodiy faoliyati tadqiqiga bag'ishlangan. Bunda mustaqillikning dastlabki yillarida yurtimizda amalga oshirilgan islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida sanoatning rivojlanishi va hududiy tashkil etilishi, oziq-ovqat ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish masalalari hamda Xorazm viloyati aholisining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganligi va ushbu sohani rivojlantirishda xomashyo resurslaridan samarali foydalanish masalalari haqida to'xtalib o'tgan⁸.

Tadqiqotchi N.M.Ziyouddinova Buxoro viloyatida oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish, sanoat korxonalarida zamonaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish, sanoat korxonalarida investitsiyaviy faoliyatni kuchaytirish masalalariga to'xtalib o'tgan⁹.

X.R.Raupov esa O'zbekiston aholisini yengil va oziq-ovqat sanoatlari iste'mol mollari bilan ta'minlash mavzusida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Yuqorida qayd qilingan tadqiqot ma'lumotlaridan dissertatsiyani hududlar kesimida qiyosiy tahlil etishda foydalanilgan¹⁰.

F.U.Xolmanova 1991–2020-yillarda O'zbekistonda yengil va oziq-ovqat sanoatlari rivojlanish tarixini Surxondaryo viloyati misolida ochib bergan¹¹.

Ikkinchi guruhdan xorijiy olimlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari va adabiyotlar o'rin olgan. Masalan, Leonid Levitinning "O'zbekiston tarixiy burilish pallasida" asarida hukumat tomonidan O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar o'tkazish strategiyasining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi qiziqarli tarzda bayon etilgan¹². Amerikalik tadqiqotchi¹³ G.Glison asarida Markaziy Osiyo

⁶ Норкуватова Г.И. Минтақада енгил саноатни ривожлантириш ва ҳудудий ташкил этишининг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш (Навоий вилояти мисолида). иқт. фанл. номз. дисс. – Урганч, 2023. – 148 б.

⁷ Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005 – 240 b.; Sattorov U. Navoiy viloyati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 283 b.; Maqsudov R., Rajabov Q. Qiziltepa tarixi (Uchinchi eng muhim qisqa ma'lumotlar). – T.: Fan va texnologiya, 2016. – 96 b.; Maqsudov R., Rajabov Q. Qiziltepa tumani kecha va bugun. – T.: Saxxoф, 2021. – 117 б.; Холмуродов Р. Хатирчи тумани тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 10-11; Hotamov A., Bekniyozov N. Karmana – qadimiy diyor. – Toshkent: O'zbekiston, 2007 – 152 b.; Hotamov A., Halilov Sh. Yillar sadosi. – Toshkent: Adolat, 1995 – 72 b.; Zaripov A., Shoyimov Sh. Karmana kechmishi. – Toshkent: Sahhof, 2021 – 192 b.; Haitova O., Qurbonov X. Karmana tarixi. – Toshkent: Mashhur-Press, 2018. – 216 b.; Салимов Т.У. Нурота ва нуроталиклар. – Т.: Университет, 2019. – 158 б.; Inoyatov S., Yo'ldoshev N., Haitova O. Ko'hna tarix guvohi (Karmana tarixidan lavhalar). – Toshkent: Sharq, 2000 – 43 b.

⁸ Абдуллаев А.Г. Озиқ-овқат саноати ривожланиши ва жойланишининг иқтисодий географик хусусиятлари (Хоразм вилояти мисолида): геог. фанл. фалс. докт. ... дисс. автореф. – Урганч, 2017.

⁹ Зиявитдинова Н.М. Озиқ-овқат саноати корхоналари фаолияти иқтисодий самарадорлигини ошириш (Бухоро вилояти мисолида): иқт. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Бухоро, 2006.

¹⁰ Раупов Р.Х. Ўзбекистон енгил ва озиқ-овқат саноатининг аҳолини истеъмол моллари билан таъминлаш тарихидан: тар. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Бухоро, 1997.

¹¹ Xolmanova F.U. O'zbekistonda yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlanish tarixi (Surxondaryo viloyati misolida, 1991–2020-yy.): tar. fanl. fals. dokt. (PhD) diss. – Termiz, 2022. – B. 137.

¹² Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001.

¹³ Gregori Gleason. The Central Asia States. – Colorado: Westview Press, 1997.; Gleason G. Independence and decolonization in Central Asia //Asian Perspective. – 1997. – Т. 21. – №. 2. – P. 223-246.

respublikalari qatorida O'zbekistonning ham mustaqillikka erishgandan so'ng, bozor munosabatlariga o'tish davridagi iqtisodiy qiyinchiliklari haqida so'z boradi. Yengil sanoatni rivojlantirish maqsadida investitsiyalarni jalb etish borasidagi muammolar xorijlik olimlar: G.Markovis¹⁴, P.Samuelson¹⁵, S.Bruno¹⁶, A.Keyn va J.Alanlarning¹⁷ ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan. To'qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirish masalalari E.Bodi, Y.Brixsma va Van Xorna ishlarida ma'lum darajada yoritilgan. Shuningdek, yengil sanoat taraqqiyoti yo'nalishlarida MDH olimlaridan M.Dyupov¹⁸, A.Xvorostyanaya¹⁹, N.Balanovskaya; oziq-ovqat sanoati texnologiyalari rivoji masalalarida Y.Cherepennikova²⁰ va N.Leyberovalar²¹ o'z ilmiy izlanishlarini olib borishgan.

Yuqorida qayd etilganidek, mustaqillik davrida O'zbekistonda yengil va oziq-ovqat sanoatlari rivojlanish tarixi bilan bog'liq qator izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, ushbu soha kompleks ravishda o'rganilmagan. Shu bilan birga, mamlakat hududlari kesimida, jumladan, Navoiy viloyatida yengil va oziq-ovqat sanoatlarining 1991–2020-yillar oralig'ida erishgan yutuq va natijalarini hamda uning kelajakdagi holatini batafsil yoritish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Buxoro davlat universiteti ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq XSh-745 "O'zbekiston sanoatida yengil va oziq-ovqat tarmoqlarining eksport strategiyalarini takomillashtirish" nomli loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston oziq-ovqat va yengil sanoatlarining rivojlanishi borasidagi iqtisodiy islohotlarni tarixiy taqqoslash (Navoiy viloyati misolida, 1991–2023-yy.) hamda undagi o'zgarishlarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Yengil sanoat korxonalarini xususiylashtirish va undagi sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish;

Paxta tozalash sanoatidagi yangi tarixiy davrni o'rganish;

To'qimachilik industrial siklining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini yoritish;

Yengil va oziq-ovqat sanoatlari tarmoqlarining rivojlanishi va viloyat iqtisodiyotidagi o'rnini ochib berish hamda qishloq xo'jaligi xomashyo resurslarini qayta ishlash masalalarini yoritish;

¹⁴ Markowitz M. Harry. Efficient Diversification of Investments. – New York: Yale University Press, 1997.

¹⁵ Samuelson Paul A. Risk und Uncertainty. – Aalen: Scientia Verlag, 1997.

¹⁶ Solnik Bruno. International Investments. – Reading, Massachusetts: Addison-Wesley, 1998.

¹⁷ Bodie, Zvi; Kane, Alex; Marcus, Alan J. Investments. – Boston: Irwin/McGraw-Hill, 1999.

¹⁸ Дюпов М.С. Развитие системы ресурсного обеспечения предприятий легкой промышленности. дисс. ... канд. экон. наук. – Москва, 2013. – 154 с.

¹⁹ Хворостяная А.С. Разработка, реализации и эффективность стратегии развития предприятия легкой промышленности: дисс. ... канд. экон. наук. – Москва, 2019.

²⁰ Черепенникова Е.Б. Пути интенсификации брожения в технологии светлых сортов пива: дисс. ... канд. тех. наук. – Москва, 2001.

²¹ Лейберова Н.В. Разработка рецептур и оценка качества безглютеновых мучных кондитерских изделий: дисс. ... канд. тех. наук. – Москва, 2012.

Meva-sabzavot va uni qayta ishlash sanoati tarixi hamda istiqbolini ko'rsatish;

Navoiy viloyati yengil va oziq-ovqat sanoat korxonalarining qayta yangilanish davrini o'rganish hamda klasteri tizimining sanoat korxonalariga joriy etilishini yoritish;

Navoiy viloyati yengil va oziq-ovqat sanoatlariga xorijiy mamlakatlar investitsiyalarining kiritilishi va ularning natijalarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda yengil va oziq-ovqat sanoatlarining rivojlanish borasidagi iqtisodiy islohotlarni tarixiy taqqoslash va uning natijalari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini O'zbekistonda yengil va oziq-ovqat sanoatlarining rivojlanish borasidagi iqtisodiy islohotlarni tarixiy taqqoslanishi, natijalari, muammolari va ularni bartaraf etish borasida amalga oshirilgan ishlar hamda soha bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tarixiy-qiyosiy, tarixiy-xronologik, tarixiy-sistemaviy (tizimli), miqdoriy (statistik) va og'zaki tarix (oral history) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Tadqiq etilgan davrda viloyatda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini sanoat asosida qayta ishlash tizimining shakllanishi, xususan, paxta, ipak, jun, teri hamda boshqa mahalliy xomashyolar negizida xalqaro standartlarga mos tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgani, natijada yangi ish o'rinlari yaratilgani va qishloq xo'jaligidagi mehnat resurslarini sanoat tarmoqlariga yo'naltirishning dastlabki institutsional bosqichlari vujudga kelgani asoslandi;

viloyat yalpi sanoat mahsulotining asosiy qismini oziq-ovqat sanoati tashkil etgan bo'lsa-da, tarmoqning xomashyoga qaram va kam diversifikatsiyalashgan tuzilmasini bartaraf etish maqsadida meva-sabzavot mahsulotlarini sanoat asosida quritish, o'rik va shaftoli danaklaridan texnik hamda oziq-ovqat moylari ajratib olish, uzum va boshqa mahalliy xomashyolar asosida ichimliklar ishlab chiqarish korxonalarining tashkil etilgani hududda agroindustrial integratsiyani kuchaytirish va eksportbop tayyor mahsulotlar ulushini oshirishga xizmat qilgani dalillangan;

2016-yildan keyin Navoiy viloyatida yengil va oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilishga qaratilgan investitsion loyihalar, jumladan, paxtani chuqur qayta ishlash, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hamda meva-sabzavot xomashyosini qayta ishlash korxonalarining tashkil etilishi natijasida hududiy sanoat ixtisoslashuvi kuchaygani, ishlab chiqarishning "xomashyo-qayta ishlash-tayyor mahsulot" zanjiri asosida rivojlanganligi va shu orqali tarmoq klasterlarini shakllantirishning institutsional hamda iqtisodiy asoslari yuzaga kelgani isbotlangan;

Navoiy viloyatining geoiqtisodiy jihatdan qulay hududda joylashgani, qo'shni davlatlar bilan bog'lovchi savdo-kommunikatsiya yo'llarining ochilishi, unumdor yer resurslari va barqaror agroiklim sharoitining mavjudligi, shuningdek, tog'-kon va mineral xomashyo zaxiralarining salmoqli ekani hamda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining yo'lga qo'yilishi viloyatda investitsion loyihalarni amalga oshirish,

eksport salohiyatini kengaytirish, savdo va turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun mustahkam iqtisodiy zamin yaratib, mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay institutsional-investitsion muhit shakllangani asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishida tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo'llanilganligi, ko'plab birlamchi manbalar va ilmiy adabiyotlardan foydalanilgani hamda xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* Navoiy viloyatida mustaqillik yillarida sanoat korxonalarining qurilishi, ishga tushirilishi jarayonlari, ishchi-xodimlarning turmush tarzi va ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlarga oid yangi ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* shundaki, undagi ma'lumlardan darslik, o'quv qo'llanma, monografiya va xrestomatiyalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangi O'zbekistonda yengil va oziq-ovqat sanoatlarining rivojlanishi borasidagi iqtisodiy islohotlarni tarixiy taqqoslash mavzusini o'rganishda to'plangan ilmiy ma'lumotlar asosida:

Tadqiq etilgan davrda viloyatda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini sanoat asosida qayta ishlash tizimining shakllanishi, xususan, paxta, ipak, jun, teri hamda boshqa mahalliy xomashyolar negizida xalqaro standartlarga mos tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgani, natijada yangi ish o'rinlari yaratilgani va qishloq xo'jaligidagi mehnat resurslarini sanoat tarmoqlariga yo'naltirishning dastlabki institutsional bosqichlari vujudga kelgani haqidagi ma'lumlardan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi tizimidagi tashkilotlar amaliyotida ma'lumot sifatida foydalanildi (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "O'zarxiv" agentligining 01-26-11/454-sonli ma'lumotnomasi*). Keltirilgan ma'lumotlar asosida to'qimachilik sanoatida yuz berayotgan o'zgarishlar orqali ipakchilik tarixi bo'yicha soha xodimlarining bilim va tasavvurlarini kengaytirishga yordam bergan;

viloyat yalpi sanoat mahsulotining asosiy qismini oziq-ovqat sanoati tashkil etgan bo'lsa-da, tarmoqning xomashyoga qaram va kam diversifikatsiyalashgan tuzilmasini bartaraf etish maqsadida meva-sabzavot mahsulotlarini sanoat asosida quritish, o'rik va shaftoli danaklaridan texnik hamda oziq-ovqat moylari ajratib olish, uzum va boshqa mahalliy xomashyolar asosida ichimliklar ishlab chiqarish korxonalarining tashkil etilgani hududda agroindustrial integratsiyani kuchaytirish va eksportbop tayyor mahsulotlar ulushini oshirishga xizmat qilgani borasidagi dalillardan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi tizimidagi tashkilotlar amaliyotida ma'lumot sifatida foydalanildi (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "O'zarxiv" agentligining 01-26-11/454-sonli ma'lumotnomasi*). Ma'lumotlar asosida to'qimachilik sanoatining modernizatsiyalashuv jarayonlari hamda ipakchilik tarmog'idagi

tarkibiy o'zgarishlar yoritilib, ushbu yo'nalishning tarixiy taraqqiyot bosqichlari, ishlab chiqarish an'analari va iqtisodiy ahamiyati yuzasidan soha mutaxassislarining ilmiy qarashlarini boyitishga xizmat qiluvchi yangi konseptual xulosalar ishlab chiqilgan.

2016-yildan keyin Navoiy viloyatida yengil va oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilishga qaratilgan investitsion loyihalar, jumladan, paxtani chuqur qayta ishlash, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hamda meva-sabzavot xomashyosini qayta ishlash korxonalarining tashkil etilishi natijasida hududiy sanoat ixtisoslashuvi kuchaygani, ishlab chiqarishning "xomashyo-qayta ishlash-tayyor mahsulot" zanjiri asosida rivojlanganligi va shu orqali tarmoq klasterlarini shakllantirishning institutsional hamda iqtisodiy asoslari yuzaga kelgani to'g'risidagi ma'lumotlardan "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Taqqimot" ko'rsatuvi ssenariysini ishlab chiqishda foydalanildi (*O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Ma'rifat" ijodiy birlashmasi" davlat muassasasi tarkibidagi "O'zbekiston tarixi" telekanalining 01-33/467-sonli ma'lumotnomasi*). Olingan natijalar O'zbekistonda yengil va oziq-ovqat sanoatlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning xulosalari bo'yicha teletomoshabinlarning bilim va tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qilgan.

Navoiy viloyatining geoiqtisodiy jihatdan qulay hududda joylashgani, qo'shni davlatlar bilan bog'lovchi savdo-kommunikatsiya yo'llarining ochilishi, unumdor yer resurslari va barqaror agroiklim sharoitining mavjudligi, shuningdek, tog'-kon va mineral xomashyo zaxiralarining salmoqli ekani hamda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining yo'lga qo'yilishi viloyatda investitsion loyihalarni amalga oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish, savdo va turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun mustahkam iqtisodiy zamin yaratib, mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay institutsional-investitsion muhit shakllangani haqidagi ma'lumotlardan "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Taqqimot" ko'rsatuvi ssenariysini ishlab chiqishda foydalanildi (*O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Ma'rifat" ijodiy birlashmasi" davlat muassasasi tarkibidagi "O'zbekiston tarixi" telekanalining 01-33/467-sonli ma'lumotnomasi*). Taqqim etilgan tahliliy ma'lumotlar orqali keng jamoatchilik, xususan, teletomoshabinlarda O'zbekistonda yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash hamda qayta ishlash sanoatini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy natijalari yuzasidan tizimli ilmiy tasavvurlarni shakllantirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan, tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Navoiy viloyati yengil va oziq-ovqat sanoatlari tarmoqlari geografiyasi va yengil sanoatdagi o'zgarishlar”** deb nomlangan birinchi bobi ikki paragrafdan tashkil topgan. Mazkur bobda mustaqillik yillarda Navoiy viloyati yengil va oziq-ovqat sanoatlari geografiyasi, viloyat tumanlaridagi iqtisodiy salohiyat haqida ma'lumotlar keltirilgan.

1993-yil 11-iyunda Navoiy viloyati hokimining “Viloyat agrosanoat majmuida iqtisodiy islohotlarning borishi va uni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, tumanlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalarini ko'paytirish, mavjud shunday korxonalar quvvatini oshirib borish, qayta ishlash texnologiyasini zamon darajasiga olib chiqish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi²².

Viloyat bo'yicha paxta tozalash uskunalarining nosozligi, ishlab chiqarishga ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari joriy etilmayotganligi tufayli me'yoridan ziyod paxta chiqitga chiqqan. Jumladan, 1992-yilda Xatirchi paxta tozalash zavodida uskunalar eskirganligi sababli, 1261 tonna paxta chiqitga chiqarib yuborilgan²³.

Navoiy viloyatida iqtisodiy islohotlarning borishi davlat tasarrufidan chiqarish dasturi asosida olib borildi. 1995-yil 5-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiylar tadbirkorlikka tashabbus ko'rsatish va uni rag'batlantirish to'g'risida”gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon ijrosini ta'minlash maqsadida, 1995-yil avgustiga qadar 1925 ta xususiylar korxona ro'yxatdan o'tkazildi. Shulardan 1369 tasi xususiylar, 556 tasi kichik korxona edi. Oxirgi 8 oy davomida viloyatda 8 ta kimoshdi savdosi, 2 ta ko'chmas mulkni sotish konkursi o'tkazilib, taqdim etilgan 265 ta obyektidan 91 tasi o'z egasini topdi²⁴.

1996-yilda viloyat miqyosida jun 1 578 tonna (1995-yilga nisbatan 94,4 foiz), qorako'l teri 445 388 dona (1995-yilga nisbatan 114,4 foiz), pilla tayyorlash 701 tonna (1995-yilga nisbatan 106,5 foiz)ni tashkil qildi. 1578 tonna jun hamda 443,7 ming dona qorako'l teri sotildi²⁵.

²² Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro'yxat, 30-ish, 57-varaq.

²³ O'sha manba, 30-ish, 41-varaq.

²⁴ O'sha manba, 135-ish, 8-varaq.

²⁵ O'sha manba, 247-ish, 18-varaq.

2007-yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan “Navbahor Tekstil” korxonasining yillik ishlab chiqarish quvvati 7 800 tonnani tashkil etadi. 2013-yilda tashkil topgan “Bright Navoi Textile” qo’shma korxonasi esa, yiliga 5 ming tonna paxtani qayta ishlash quvvatiga ega. Turkiya hamda Angliya davlatlari hamkorligida ish yuritayotgan mazkur korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar asosan eksportga yo’naltirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentining 2006-yil 5-yanvarda “Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosida ishlab chiqarish va xizmatlar o‘rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-3707-sonli Farmoni chiqqanidan so‘ng viloyatda kasanachilikka yanada ko‘proq e’tibor berila boshlandi. Bu vaqtga qadar ayollar qo‘l mehnati bizda yaxshi rivojlanib kelgan edi. Farmon chiqqanidan so‘ng kasanachilikda uch tomonlama shartnoma tuzildi va u korxona – mahalla – kasanachi tartibida tashkil etildi. Bu uyda o‘tirgan ayollar uchun juda qulay bo‘ldi. Mahalla faollari uyda o‘tirgan ayollarni ish bilan ta‘minlash maqsadida buyurtmaga ehtiyoji bor korxonalardan ish topib, ayollarni ish bilan ta‘minladilar. Shu tariqa ayollarni asta-sekin ish bilan ta‘minlashni yo‘lga qo‘ya oldik. Hatto, ishlab chiqarish korxonalariga haftaning ma‘lum bir vaqtida sartaroshlar borishi ham tashkil etildi. Tasavvur qiling, bizda korxonalar uch smenada ishlaydi, ishchilar ishdan chiqib maishiy ehtiyojlariga chiqishlari uchun sharoit yaratish maqsadida korxona xodimlarining ishdan chiqishiga yoki tushlik vaqtida korxonaning o‘zida sartaroshlik xizmati yo‘lga qo‘yildi. Kasanachilar ko‘proq “Simzavod” “Navoiyissiqlikelektrostansiyasi”, “Navoiyazot”, “Navoiymetallurgiya”, “Qizilqumsement” AJda bo‘ldi²⁶.

Yengil sanoatda keng iste’mol mollari ishlab chiqariladi va u quyidagi tarmoqlardan iborat: ip-gazlama, jut, jun, trikotaj, ko‘n, poyabzal, mo‘yna va boshqalar.

Yengil sanoatga xomashyoni asosan, qishloq xo‘jaligi yetkazib beradi (paxta, zig‘ir tolasi, jun, ko‘n (teri, mo‘yna). Hozirgi paytda kimyo sanoati mahsulotlari ham yengil sanoat xomashyosi hisoblanadi (kiyimdan tashqari noto‘qima mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan 7 ta korxona va tashkilot Karmana, Xatirchi tumanlari va Navoiy shahrida joylashgan; boshqa texnik va sanoat to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan 2 ta korxona Qiziltepa tumanida va Navoiy shahrida joylashgan; boshqa toifalarga kiritilmagan to‘qimachilik mahsuloti ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan 25 ta korxona va tashkilot Karmana, Navbahor, Xatirchi, Uchquduq, Nurota, Qiziltepa tumanlari va Zarafshon shahrida joylashgan (2023-yil yakuni)²⁷;

Ip-gazlama, jun gazlama, shoyi va zig‘ir tolasidan gazlama ishlab chiqarish to‘qimachilik sanoatini tashkil qiladi.

Gazlama to‘qish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat:

²⁶ Navoiy viloyati Karmana tumani iqtisod masalalari bo‘yicha 1999-2000-yillarda tuman hokimi o‘rinbosari bo‘lib ishlagan Musallam Ibragimova bilan qilingan suhbatdan. Suhbat 2022-yil 20-avgustda yozib olingan.

²⁷ Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari. URL: <https://www.navstat.uz>

- xomashyoga dastlabki ishlov berish bosqichi, paxta tozalash, zig'ir tolasiga ishlov berish, jun yuvish (paxta tolalarini tayyorlash va yigirish bilan shug'ullanadigan 15 ta korxona va tashkilot Navbahor, Xatirchi, Karmana, Qiziltepa tumanlari hamda Navoiy, Zarafshon shaharlarida joylashgan; jun tolalarni tayyorlash va yigirish bilan shug'ullanadigan 11 ta korxona va tashkilot Qiziltepa, Tomdi, Nurota, Navbahor, Karmana tumanlari hamda Navoiy, Zarafshon shaharlarida joylashgan (2023-yil yakuni)²⁸;

- ip yigirish bosqichi (jun va paxtadan boshqa tolalarni tayyorlash va yigirish bilan shug'ullanadigan 8 ta korxona va tashkilot Qiziltepa, Xatirchi va Karmana tumanlarida joylashgan (2023-yil yakuni)²⁹;

- gazlama to'qish bosqichi (ip gazlama ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 4 ta korxona va tashkilot Karmana tumani va Zarafshon shahrida joylashgan; jun gazlama ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 4 ta korxona va tashkilot Qiziltepa, Xatirchi, Uchquduq va Konimex tumanlarida joylashgan; ipak gazlama ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 2 ta korxona Navoiy shahri va Nurota tumanida joylashgan; ip va jundan boshqa gazlamalar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 2 ta korxona Tomdi va Uchquduq tumanlarida joylashgan (2023-yil yakuni)³⁰;

- pardozlash bosqichi (to'qimachilik mahsulotlarini bezash bilan shug'ullanadigan 4 ta korxona va tashkilot Tomdi, Nurota, Xatirchi tumanlari va Navoiy shahrida joylashgan (2023-yil yakuni)³¹;

Xomashyoga dastlabki ishlov berish korxonalarini xomashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi. To'qimachilik korxonalarida ko'proq ayollar ishlaydi, shuning uchun ushbu sanoat korxonalarini aholi ko'p to'plangan shaharlar va og'ir sanoat rivojlangan hududlarda joylashtiriladi (gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 1 ta korxona Uchquduq tumanida joylashgan (2023-yil yakuni)³².

Trikotaj va tikuvchilik sanoati korxonalarini joylashtirishda ularning mahsulotlaridan foydalanadigan hududlar hisobga olinadi. Chunki bu sanoat uchun kerak bo'lgan kalavalarni tashish tayyor mahsulotni tashishdan qulayroq va arzonroq (to'qilgan va trikotaj polotno ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 2 ta korxona Xatirchi va Qiziltepa tumanlarida joylashgan; kiyimdan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 29 ta korxona va tashkilot Qiziltepa, Xatirchi, Karmana, Tomdi, Navbahor, Uchquduq va Nurota tumanlari hamda Navoiy va Zarafshon shaharlarida joylashgan (2023-yil yakuni)³³.

Demak, to'qimachilik sanoati korxonalarini joylashtirishda iste'molchilar, mehnat resurslari va xomashyo manbalari hisobga olinadi (arqon, kanat, chilvir, bog'ichlar ishlab chiqarish va to'r to'qish bilan shug'ullanadigan 1 ta korxona Navoiy shahrida joylashgan (2023-yil yakuni)³⁴.

²⁸ Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. URL: <https://www.navstat.uz>

²⁹ O'sha manba. URL: <https://www.navstat.uz>

³⁰ O'sha manba. URL: <https://www.navstat.uz>

³¹ O'sha manba. URL: <https://www.navstat.uz>

³² O'sha manba. URL: <https://www.navstat.uz>

³³ O'sha manba. URL: <https://www.navstat.uz>

³⁴ O'sha manba. URL: <https://www.navstat.uz>

Qand-shakar ishlab chiqarish qand lavlagi yetishtiradigan joylarda, vino zavodlari uzumchilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik rivojlangan joylarda barpo etiladi (meva va sabzavot sharbatlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 3 ta korxona Navbahor, Karmana tumanlari va Zarafshon shahrida joylashgan; meva va sabzavotlarni qayta ishlash va konservalashning boshqa turlari bilan shug'ullanadigan 10 ta korxona va tashkilot Navbahor, Karmana, Xatirchi tumanlari va Zarafshon, Navoiy shaharlarida joylashgan; kraxmal va kraxmalli mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 1 ta korxona Navoiy shahrida joylashgan; kakao, shokolad va sershakar qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 10 ta korxona va tashkilot Navbahor va Xatirchi tumanlari hamda Navoiy shahrida joylashgan; spirtli ichimliklarni distillash, tozalash va aralashtirish bilan shug'ullanadigan 1 ta korxona Navoiy shahrida joylashgan; uzumdan vino ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 2 ta korxona Qiziltepa va Navbahor tumanlarida joylashgan; distillanmay fermentlangan (bijg'itilgan) ichimliklar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 1 ta korxona Navoiy shahrida joylashgan; pivo ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 1 ta korxona Navoiy shahrida joylashgan; spirtsiz ichimliklar ishlab chiqarish, butilkada mineral suvlar va boshqa suvlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 70 ta korxona va tashkilot Konimex, Qiziltepa, Navbahor, Karmana, Nurota, Tomdi, Uchquduq tumanlari va Zarafshon, Navoiy shaharlarida joylashgan; choy va qahva ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 3 ta korxona Nurota tumani va Navoiy shahrida joylashgan (2023-yil yakuni)³⁵.

Sut mahsulotlari ishlab chiqarish sut chorvachiligi rayonlarida barpo etiladi. Sutni qayta ishlash va pishloq ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 36 ta korxona va tashkilot Karmana, Nurota, Qiziltepa, Navbahor, Nurota, Uchquduq va Xatirchi tumanlari hamda Navoiy shahrida joylashgan; muzqaymoq ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 13 ta korxona va tashkilot Konimex, Karmana, Uchquduq, Xatirchi tumanlari, Zarafshon va G'ozg'on shaharlarida joylashgan (2023-yil yakuni)³⁶.

Yog' sanoati paxta, kungaboqar, zig'ir, soya va boshqa moyli ekinlar ekiladigan rayonlarda barpo etiladi. O'simlik va hayvon yog'lari va moylarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 15 ta korxona va tashkilot Qiziltepa, Navbahor, Karmana, Nurota, Xatirchi tumanlari va Navoiy shahrida joylashgan; margarin va ovqatga ishlatiladigan aralash yog'lar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 2 ta korxona Qiziltepa va Xatirchi tumanlarida joylashgan (2023-yil yakuni)³⁷.

Go'sht kombinatlari chorvachilik rivojlangan joylarda barpo qilinadi, ammo keyingi paytlarda yirik shaharlar atrofida ham go'sht kombinatlari, parrandachilik fabrikalari qurilmoqda (kushxonalarda mol so'yish, go'shtga ishlov berish yoki qadoqlash bilan shug'ullanadigan 15 ta korxona va tashkilot Nurota, Qiziltepa, Uchquduq va Xatirchi tumanlari hamda Navoiy, Zarafshon shaharlarida

³⁵ O'sha manba. URL: <https://www.navstat.uz>

³⁶ O'sha manba. URL: <https://www.navstat.uz>

³⁷ O'sha manba. URL: <https://www.navstat.uz>

joylashgan; yangi, sovutilgan va muzlatilgan go'sht ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 1 ta korxona Nurota tumanida joylashgan; go'shtni qayta ishlash bo'yicha boshqa faoliyat bilan shug'ullanadigan 4 ta korxona Karmana, Uchquduq tumanlari hamda G'ozg'on, Navoiy shaharlarida joylashgan; uy parrandalari go'shtini qayta ishlash bilan shug'ullanadigan 13 ta korxona va tashkilot Nurota, Qiziltepa, Tomdi, Navbahor, Uchquduq tumanlari va Zarafshon, Navoiy shaharlarida joylashgan; tuzlangan, quritilgan yoki dudlangan go'sht, parranda go'shti va ozuqaviy submahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 2 ta korxona Navoiy shahri va Nurota tumanida joylashgan; kolbasa mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 1 ta korxona Navoiy shahrida joylashgan; boshqa toifalarga kiritilmagan go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan 3 ta korxona Qiziltepa va Uchquduq tumanlari hamda Navoiy shahrida joylashgan (2023-yil yakuni)³⁸.

Baliq sanoati, asosan, baliq ovlanadigan hududlarda rivojlangan (baliq, qisqichbaqasimonlar va mollyuskalarni qayta ishlash va konservalash bilan shug'ullanadigan 12 ta korxona va tashkilot Qiziltepa, Nurota, Xatirchi, Karmana tumanlari va Zarafshon, Navoiy shaharlarida joylashgan (2023-yil yakuni)³⁹.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, yengil va oziq-ovqat sanoatlari tarmoqlari sanoatini hududiy tashkil etish bilan bog'liq iqtisodiy-geografik tadqiqotlarning ko'lami kengaymoqda. Bugungi kunda tarixiy-geografik tadqiqotlarga talab va ehtiyoj ortdi. Ammo, shu bilan birgalikda, yengil va oziq-ovqat sanoatlarini hududiy tashkil etish bilan bog'liq juda ko'p nazariy masalalar o'z yechimini topganicha yo'q.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab xususiylashtirish jarayonining boshlanishi, mulkdorlar sinfining shakllanishi, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining yo'lga qo'yilganligini ko'rish mumkin.

Respublikada bozor munosabatlariga o'tish jarayonida amalga oshirilgan ishlardan biri, rivojlangan xorijiy davlatlar o'rtasida hamkorlik aloqalarining o'rnatilishi, ular tomonidan yengil sanoat sohasiga investitsiyalarning kiritilishi natijasida sohadagi o'zgarishlarga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Yengil sanoat korxonalarini texnik jihatdan qayta jihozlash ishlari amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Navoiy viloyati oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi va hududiy ixtisoslashuvi**" deb nomlanib, unda oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining rivojlanishi va viloyat iqtisodiyotidagi tutgan o'rni, yog'moy, go'sht va sut sanoati tarmoqlarida qishloq xo'jaligi xomashyosi resurslarini qayta ishlash masalalari hamda meva-sabzavot va uni qayta ishlash sanoati tarixi va istiqboli tahlil qilinadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida xalqni oziq-ovqat hamda kundalik ehtiyoj mahsulotlari bilan ta'minlash juda dolzarb masala edi. Albatta, bozor iqtisodiyotiga o'tish oson bo'lgani yo'q. Jamiyat oldida turgan asosiy muammolardan biri, ya'ni oziq-ovqat muammosini bartaraf etish uchun qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish ishiga alohida ahamiyat berildi.

³⁸ Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. URL: <https://www.navstat.uz>

³⁹ O'sha manba. URL: <https://www.navstat.uz>

1992-yilda viloyat dehqonlari ham yillik rejalarni bajarish yoʻlida hormay-tolmay mehnat qildilar. Jumladan, birgina Xatirchi tumanida sugʻoriladigan 165 gektar yerning har gektaridan 34 sentnerdan 558 tonna don yigʻishtirib olindi. Shundan 200 tonnasi davlatga topshirildi. 100 tonnasi kolxozchilarga boʻlib berildi. 40 tonnasi urugʻlik sifatida olib qoʻyildi. Meva yetishtiriladigan tuman bogʻlaridan 60 tonna oʻrniga 78,5 tonna meva olinib, reja 131 foizga bajarildi. 197 tonna sabzavot, 84 tonna poliz mahsulotlari yetishtirildi. 9 oylik muddat davomida davlatga sut sotish 106 foizga, goʻsht tayyorlash 62 foizga, tuxum yetkazib berish 100 foizga bajarildi⁴⁰.

1993-yilda Navbahor tumanida ham oziq-ovqat muammosini bartaraf etish uchun mehnatkash xalqimiz katta mehnat qildi. 4084 tonna donli ekin, 714 tonna uzum, 5107 tonna sabzavot yigʻishtirib olindi. Ayni damda tumanda 600 tonnadan ortiq goʻsht, 200 tonnadan ortiq sut mahsulotlarini yetishtirdilar. “Gigant” davlat xoʻjaligida konserva bankasi ishlab chiqaradigan sex, “Jambul” jamoa xoʻjaligida sharbat zavodi, “Oxunboboyev” nomli jamoa xoʻjaligida shakar ishlab chiqaruvchi zavod ishga tushirildi⁴¹.

1993-yilda Navoiy shahrida baliq kombinati va aroq-vino tayyorlovchi zavod qurilishi ham boshlandi⁴².

Respublikada oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligi davlat tomonidan muhofaza qilingan. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997-yilning 30-avgustida 483-1-sonli va 2006-yilning 6-aprelida qayta takomillashtirilgan “Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi toʻgʻrisida”gi qonunga muvofiq amalga oshiriladi va nazorat qilinadi⁴³. Ushbu qonunning asosiy maqsadi aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlashning huquqiy asoslarini belgilab berish edi.

2001-yilda Xatirchi tumanida aholini 8 turdagi oziq-ovqat mahsuloti bilan taʼminlash maqsadida 7 105 tonna un yoki oʻtgan yilgiga nisbatan 214 tonna koʻp, 194 tonna oʻsimlik yogʻi yoki oʻtgan yilgiga nisbatan 9 tonna kam, 1 556 tonna shakar yoki oʻtgan yilga nisbatan 836 tonna koʻp olib kelinib, tuman aholisiga tarqatildi⁴⁴.

Jumladan, viloyatimizning yirik tumanlarida oziq-ovqat sohasini rivojlantirish prognozlariga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, 2003-yilda 58 ta mahalliy sanoat korxonasi tomonidan mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Navoiy viloyati oziq-ovqat sanoati korxonalarida 2007-yilda non va non mahsulotlari 19 233,0 tonna, sut va sut mahsulotlari 4 100,0 ming tonna, konservalar 545 ming shartli banka, oʻsimlik yogʻi 16 664,0 tonna, makaron mahsulotlari 1 066,0 tonna, aroq va aroq-likyor mahsulotlari 266,0 ming dal, un mahsulotlari 96 551,0 tonna va omuxta yem (kombikorm) 39 047,0 tonna ishlab chiqarildi⁴⁵.

⁴⁰ Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-roʻyxat, 4-ish, 37-varaq.

⁴¹ Oʻsha manba, 31-ish, 16-varaq.

⁴² Oʻsha manba, 31-ish, 3-varaq.

⁴³ URL: <https://lex.uz/ru/docs/-20326?ONDATE=18.01.2024>

⁴⁴ Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-roʻyxat, 560-ish, 74-varaq.

⁴⁵ Navoiy viloyati statistik axborotnomasi, 2007. – B. 45.

Navoiy viloyati oziq-ovqat sanoatida 2010-yilda 304,2 mlrd so'mlik, 2011-yilda 356,7 mlrd so'mlik, 2012-yilda 414,1 mlrd so'mlik, 2013-yilda 454,0 mlrd so'mlik, 2014-yilda 659,2 mlrd so'mlik, 2015-yilda 867,3 mlrd so'mlik, 2016-yilda 1 005,1 mlrd so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilgan⁴⁶.

Navoiy viloyati go'sht mahsulotlari bilan aholini ta'minlashda katta imkoniyatlarga ega hudud hisoblanadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida viloyatda chorva tuyoq sonining kamayib ketishi go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish sur'atining pasayishiga ta'sir ko'rsatdi. 1991-yilda viloyatda go'sht ishlab chiqarish 75 foizga, tuxum ishlab chiqarish 40 foizga bajarilgan. Shu yili qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'lgan go'shtni davlatga sotish rejasi 85 foizga bajarilgan⁴⁷.

1992-yilda Qiziltepa tumanida "Zarafshon" davlat xo'jaligida kolbasa ishlab chiqarish sexi ishga tushirildi⁴⁸. Navoiy viloyati xo'jaliklari ishlab chiqarishda chorcachilik tarmog'i muhim o'rin tutadi. 1992-yil oxirida viloyat chorcachilik xo'jaliklarida 43 968 bosh qoramol, 1 417 642 bosh qo'y va echki, 1 911 bosh cho'chqa, 10 520 yilqi, 8 843 bosh tuya, 684 532 bosh parranda mavjud bo'lgan. Viloyat bo'yicha o'tgan yili chorcachilik mahsulotlari ishlab chiqarish rejalari quyidagicha bo'ldi: go'sht ishlab chiqarish yillik rejasi 85 foizga, tuxum 72 foizga bajarildi. Viloyat bo'yicha o'tgan yili chorcachilik mahsulotlarini davlatga sotish rejalari ko'ra, go'sht 73 foizga, tuxum 68 foizga bajarildi⁴⁹.

"O'zgo'shtsanoat" O'zbekiston go'sht va sut sanoati davlat aksionerlik assotsiatsiyasi 1993-yil 3-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 588-sonli farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 6-apreldagi 172-sonli qaroriga muvofiq tashkil qilingan edi. O'zbekiston go'sht va sut sanoati davlat aksionerlik assotsiatsiyasi o'sha vaqtda Qishloq xo'jaligi vazirligi tashrifi bo'lgan va keyinchalik uning tashrifidan chiqarilgan. "O'zgo'shtsanoat" ishlab chiqarish birlashmasining huquqiy vorisi hisoblanadi⁵⁰.

Mustaqillikning dastlabki besh yilligida deyarli e'tibor berilmagan tizim bu – baliqchilikdir. Navoiy viloyati aholisini baliq mahsulotlari bilan ta'minlashda "To'dako'l" baliqchilik xo'jaligining ham o'rni e'tiborga molikdir⁵¹. 1997-yilga kelib esa, Navoiy viloyati baliqchilik xo'jaligi tizimida 3,3 ming gektar suv havzasi mavjud bo'lgan. 1994–1997-yillar mobaynida mazkur suv havzalariga 3,41 mln dona baliq chavoqlari tashlangan. Shundan 516,1 ming donasi ikki yillik o'txo'r baliqlar bo'lgan⁵².

Insonning to'g'ri ovqatlanish ratsionida sut va sut mahsulotlarining o'rni juda muhimdir. O'zbekistonda birinchi sut zavodi Toshkent shahrida 1928-yilda ishga tushirilgan. Navoiy viloyati respublikamizda sut va sut mahsulotlari yetishtirish

⁴⁶ Navoiy viloyat hokimligi joriy arxivi ma'lumotlari.

⁴⁷ Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro'yxat, 3-ish, 32-varaq.

⁴⁸ O'sha manba, 3-ish, 9-varaq.

⁴⁹ O'sha manba, 17-ish, 7-varaq.

⁵⁰ O'zMA. M-82-fond, 1-ro'yxat, 32-ish, 2-varaq.

⁵¹ Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro'yxat, 3-ish, 12-varaq.

⁵² Navoiy viloyati davlat arxivi. 293-fond, 1-ro'yxat, 9-ish, 55-varaq.

bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallaydi. 1992-yilda viloyat bo'yicha yog'lilik darajasi 3,8 foizni tashkil etuvchi sutning 73 foizi I navda, 25,6 foizi II navda, 1,4 foiz sut esa navi belgilanmagan holda bo'lgan. 1996-yilda "Navoiysut" aksionerlik jamiyati 6,6 mln so'mlik sut ishlab chiqargan va bu oldingi yilga nisbatan 87,4 foizni tashkil etdi⁵³.

"Navoiysut" aksionerlik jamiyati aholi uchun zarur bo'lgan sut mahsulotlarini ishlab chiqarishni pasaytirdi. Misol uchun, oldingi yilga nisbatan sut mahsulotlari 60,5 foizga kam bo'lgan. Buning asosiy sabablaridan biri, qishloqdagi an'anaviy korxonalar bilan aloqaning susayganligi, sut-tovar firmalari bilan vaqtida hisob-kitob qilinmayotganligidadir⁵⁴.

1996-yilda viloyat miqyosida sut ishlab chiqarish 118 714 tonna (1995-yilga nisbatan 90,7 foiz)ni tashkil qilgan. Qishloq xo'jaligi tashkilotlarida har bir sigirdan o'rtacha 943 kg (o'rtacha 915,5 litr) sut sog'ib olingan va 23 819 tonna sotilgan⁵⁵.

1998-yil 10-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qaymog'i olinmagan sutni qayta ishlovchi kichik zavodlar tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 434-sonli qarori imzolangan.

2003-yilda respublikadagi barcha toifadagi xo'jaliklarda 4,03 mln tonna sut ishlab chiqarilgan (uning 96% foizi dehqon xo'jaliklarida yetishtirilgan), 790 tonna sariyog', 6,3 ming tonna sut va sut mahsulotlari, 2 715 tonna muzqaymoq tayyorlangan.

O'zbekistonda yog'-moy sanoati oziq-ovqat sanoatining yetakchi tarmoqlaridan hisoblanadi. Mamlakatda ishlab chiqariladigan oziq-ovqat sanoati umumiy mahsulot hajmining 40%ga yaqinini beradi.

O'simlik moyi presslash va ekstraksiya yo'li bilan olinib, ketma-ket tozalanadi va dezodoratsiyalanadi. Ayrim korxonalarda keyingi yillarda kungaboqar pistasi va mahsar urug'laridan yog' ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. 1992-yilda Qiziltepa tumani "X.Qobilov" jamoa xo'jaligi va "Bo'ston" davlat xo'jaligida moyjuvozlari ishga tushirilgan⁵⁶.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi "Respublika aholisini yog'-moy mahsulotlari bilan ta'minlash, hududlarda moyli ekinlarni yetishtirish va ularni qayta ishlash hajmlarini ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1047-sonli qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 24-dekabrdaqi №03-10-64 majlis bayonnomasi sohadagi ishlarni yanada jadallashtirdi⁵⁷.

1992-yilda Navoiy viloyati xo'jaliklari meva-sabzavotchilik sohasida astoydil mehnat qilib, o'tgan mavsumda 19 368 tonna sabzavot, 11 169 tonna poliz, 4 965 tonna meva, 7 636 tonna uzum yetishtirilgan. Bu, albatta, rejada belgilangan raqamlardan birmuncha past bo'lib, sabzavot ishlab chiqarish rejasi 93,1 foizga,

⁵³ Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro'yxat, 247-ish, 10-varaq.

⁵⁴ O'sha manba, 247-ish, 11-varaq.

⁵⁵ O'sha manba, 247-ish, 18-varaq.

⁵⁶ O'sha manba, 4-ish, 5-varaq.

⁵⁷ www.lex.uz

poliz mahsulotlari yetishtirish 72,5 foizga, meva yetishtirish 83 foizga, uzum yetishtirish 53 foizga bajarilgan⁵⁸.

1993-yil 19-yanvarda Navoiy viloyati dehqonchilik sanoati uyushma kengashi hay'atining "Viloyat xo'jaliklarida mevali bog'lar va uzumzor maydonlarida kuzgi-qishki agrotexnik tadbirlar bajarilishining borishi to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, xo'jaliklarda mavjud 2 581 gektar mevali bog' va 4 437 gektar uzumzorda agrotexnik tadbirlar amalga oshirilgan⁵⁹.

1993-yil 11-iyunda Navoiy viloyati hokimining "Viloyat agrosanoat majmuida iqtisodiy islohotlarning borishi va uni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Ushbu qarorga muvofiq, tumanlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalarini ko'paytirish, mavjud shunday korxonalar quvvatini oshirib borish, qayta ishlash texnologiyasini zamon darajasiga olib chiqish yuzasidan tegishli topshiriqlar berilgan⁶⁰.

1993-yilda Navbahor tumanida 714 tonna uzum, 5107 tonna sabzavot yig'ishtirib olingan. "Jambul" jamoa xo'jaligida sharbat zavodi ishga tushirilgan⁶¹. Navoiy shahrida aroq-vino zavodi ish boshlagan. 1993-yilda Germaniyaning "Universal" firmasi bilan hamkorlikda meva va sabzavotlarni quritadigan zavod liniyalari qurilgan⁶².

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan oziq-ovqat mahsulotlari yetishtiruvchi va uni qayta ishlab tayyor mahsulot holatiga keltiruvchi korxonalar, tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi integratsion jarayon yoki uzilmas zanjirni ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, sohada mavjud kamchiliklarga ham to'xtalib o'tildi.

Oziq-ovqat sanoatida meva-sabzavot va poliz ekinlari haqida gap ketar ekan, yurtimizda yetishtirilayotgan mevalarning ko'rinishi, mazasi, xushbo'yligi bilan jahon bozorlariga kirib borgan. Shu kunga qadar ushbu sohaga ixtisoslashgan tumanlarimiz shakllanib ulgurdi.

Dissertatsiyaning **"Yangi O'zbekiston strategiyasida nazarda tutilgan yengil va oziq-ovqat sanoatlari tarmoqlaridagi islohotlar va uning natijalari"** deb atalgan uchinchi bobida yangilanish davrida Yangi O'zbekistonda, jumladan, Navoiy viloyati yengil sanoati, o'tkazilgan iqtisodiy islohotlar natijasida oziq-ovqat sanoatidagi o'zgarishlar, shuningdek, yengil va oziq-ovqat sanoatlariga investitsiya kiritish va qo'shma korxonalarning faoliyatini kuchaytirish bilan bog'liq jihatlariga e'tibor qaratilgan.

2017–2019-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-noyabrdagi "Paxtachilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3408-son qarori qabul qilindi⁶³.

⁵⁸ Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro'yxat, 17-ish, 23-varaq.

⁵⁹ O'sha manba, 17-ish, 23-varaq.

⁶⁰ O'sha manba, 30-ish, 57-varaq.

⁶¹ O'sha manba, 31-ish, 16-varaq.

⁶² O'sha manba, 4-ish, 37-varaq.

⁶³ URL: <https://lex.uz/docs/3429584>

Shunga asosan “O‘zbekpaxtasanoat” AJ tashkil etildi. Uning tashkiliy tuzilmasiga 98 ta paxta tozalash korxonasi, 13 ta transport korxonasi, 10 ta paxta tozalash korxonasiga xizmat ko‘rsatuvchi viloyat texnika ustaxonasi, 5 ta ekiladigan urug‘lik chigit tayyorlash korxonasi, 19 ta ixtisoslashtirilgan paxta terminali, “Moddiy-texnika ta‘minoti bazasi” MChJ, “Paxtasanoat ilmiy markazi” AJ va boshqalar kiritildi⁶⁴.

Navoiy viloyati to‘qimachilik sanoatida 2016-yilda 336,7 mlrd so‘mlik, 2017-yilda 482,0 mlrd so‘mlik, 2018-yilda 578,8 mlrd so‘mlik, 2019-yilda 875,4 mlrd so‘mlik, 2020-yilda 1 087,9 mlrd so‘mlik, 2021-yilda 1 397,0 mlrd so‘mlik, 2022-yilda 1 564,1 mlrd so‘mlik to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarilgan⁶⁵.

Viloyatda ishlab chiqarish sanoatining tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 2016-yilda 4,6 foizni, 2017-yilda 5,4 foizni, 2018-yilda 3,2 foizni, 2019-yilda 2,4 foizni, 2020-yilda 2,0 foizni, 2021-yilda 2,3 foizni, 2022-yilda 2,3 foizni, 2023-yilda 2,3 foizni tashkil etdi⁶⁶.

2013-yilda barpo etilgan, Navoiy viloyati sanoatida loyiha qiymati 2 mln AQSh dollariga teng bo‘lgan “Bright Navoi Textile” qo‘shma korxonasi muhim o‘rin tutadi. Navbahor tumanida joylashgan ushbu yengil sanoat kompleksi tashkil topgan vaqtda yiliga 4 tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan. 180 nafar ishchi xizmat qilgan. 2019-yil oxiriga kelib, korxonaning qo‘shimcha yana bir sexi isha tushgan va qo‘shimcha ikki tonna mahsulot ishlab chiqarila boshlangan. Bu esa, yana 30 ta ishchi o‘rni yaratilishiga olib keldi. Korxona ichki va tashqi bozorga raqobatbardosh mahsulotlarni yetkazib bermoqda⁶⁷.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-martdagi Navoiy viloyatiga qilgan tashrifida berilgan topshirig‘iga asosan, Xatirchi tumanida 6 ming tonna ip-kalava, 6 mln metr kvadrat gazlama, 4 ming tonna bo‘yalgan ip mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega to‘qimachilik korxonasi ishga tushirilib, 1000 ta ishchi o‘rni yaratilishi ko‘zda tutilgan bo‘lgan. “Mustaqillik” mahallasi hududidagi 8 gektar maydonda faoliyat olib borayotgan “Navoiy Fayzcom Textile” MChJda 377 nafar ishchi-xodim ishlamoqda. Sifatli ip-kalava sexini to‘liq ishga tushirish maqsadida Pokiston Islom Respublikasidan 7 nafar xorijlik mutaxassis jalb qilingan. Yirik quvvatga ega texnologiyalar Germaniya, Belgiya hamda Turkiya davlatlaridan olib kelingan. 2023-yil iyul oyida Rossiya Federatsiyasi bilan 1 mln dollar qiymatga ega shartnoma imzolandi. Korxonada bir oyda 400 tonnagacha ip-kalava mahsuloti ishlab chiqarilmoqda⁶⁸.

2022-yilda Navoiy viloyati sanoati tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda tumanlarning ulushi quyidagicha bo‘ldi: Zarafshon shahri 18,6 foiz, G‘ozg‘on shahri 3,0 foiz, Karmana tumani 0,7 foiz, Konimex tumani 7,2 foiz,

⁶⁴ Салимов А. Маҳсулотлар сифатини аниқлаш ва сертификатлаш. – Тошкент: Фан ва технология, 2019. – Б. 3.

⁶⁵ Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma‘lumotlari. URL: <https://www.navstat.uz>

⁶⁶ O‘sha manba. URL: <https://www.navstat.uz>

⁶⁷ Do‘stlik bayrog‘i. 2019-yil 9-avgust. – №63.

⁶⁸ O‘sha manba. 2023-yil 10-avgust. – №32.

Qiziltepa tumani 55,7 foiz, Navbahor tumani 54,7 foiz, Nurota tumani 7,3 foiz, Tomdi tumani 13,7 foiz, Uchquduq tumani 4,9 foiz, Xatirchi tumani 9,8 foiz⁶⁹.

Navoiy viloyatining eksport hajmida paxta tolasi sotish ham muhim o'rin tutadi. Jumladan, 2016-yilda 23 165,8 ming AQSh dollari, 2017-yilda 9 569,4 ming AQSh dollari, 2018-yilda 2 650,6 ming AQSh dollari, 2019-yilda 1 718,9 ming AQSh dollarilik paxta tolasi eksport qilingan⁷⁰.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-sentabrda qabul qilingan "Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota tumanlari va Zarafshon shahrini kompleks rivojlantirish hamda aholining bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida Zarafshon shahrida Turkiya davlati bilan hamkorlikda "Amesa Zarafshon textile" MChJ shaklidagi xorijiy korxonasi barpo etildi. Yengil sanoat obyektida 130 nafar ishchi-xodim faoliyat yuritgan. 2019-yil may oyidan korxona boshlab tikuv-trikotaj mahsulotlarini ham chiqara boshlagan. Ish ikki smenada tashkil etilgan. Ishchilar korxonada faoliyat boshlashdan avval tayyorlov kurslarida tahsil olib, yoshlarga tadbirkorlikni qanday tartibda yo'lga qo'yish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, bozor talablarini o'rganish, xodimlarning mehnat muhofazasi masalalarida maslahat va tavsiyalar beriladi⁷¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-noyabrdagi "Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4005-sonli va 2020-yil 29-avgustdagi "Baliqchilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4816-sonli qarorlari baliq mahsulotini sanoat usulida yetishtirish, qayta ishlashda tarmoq korxonalari uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Unga ko'ra, baliq mahsuloti yetishtirish bilan shug'ullanuvchi qishloq xo'jaligi korxonalariga suv iste'moli uchun to'lanadigan soliq turlarida imtiyozlar berildi.

2020-yilda respublikada birinchi marta "HACCP ISO 22000" sertifikatini olishga muvaffaq bo'lgan Qiziltepa tumanidagi "Golden Bio Fish" korxonasi Turkiyaga 1 mln dollar va Vengriyaga 1 mln yevro miqdoridagi muzlatilgan baliq hamda file mahsulotlari eksportini amalga oshirdi⁷².

2018-yil avgust oyida qo'shma korxona sifatida shakllantirilgan "Paradise Garden" MChJ Koreya Respublikasining "MS Holdings" korxonasi bilan hamkorlikda Navbahor tumani "Qorajon" mahallasida qiymati 1 mln AQSh dollariga teng bo'lgan vino zavodiga asos solindi. Qo'shimcha ishlab chiqarish obyekti va binolarini qurish uchun 2019-yilda Italiyaning "Della Toffola S.P.A." korxonasidan 448 ming yevroga baholangan texnologiya sotib olindi. Shuningdek, Koreya Respublikasidan qiymati 447 ming AQSh dollariga teng bo'lgan texnologik uskunalar xarid qilindi. Korxona bir yilda 2,93 mln dollarga teng 800 tonna mahsulot tayyorladi. Eksportga yo'naltirish qiymati birinchi bosqichda 400 ming dollarni tashkil etdi⁷³. Bu yerda soatiga 1 tonna mevani, 0,8 tonna uzumni

⁶⁹ Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. URL: <https://www.navstat.uz>

⁷⁰ O'sha manba. URL: <https://www.navstat.uz>

⁷¹ Do'stlik bayrog'i. 2019-yil 27-avgust. – №68.

⁷² O'sha manba. 2020-yil 6-mart. – №12.

⁷³ O'sha manba. 2019-yil 9-avgust. – №63.

qayta ishlab, sharbat ko‘rinishida tayyor mahsulot sifatida qadoqlab chiqarish imkoniyati yaratildi. 2021-yilda mazkur loyiha to‘liq ishga tushirilib, 15 ta doimiy hamda 50 ta mavsumiy ish o‘rinlari yaratildi.

O‘zbekistonning savdo-sotiqdagi asosiy mijozlari: Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Shveytsariya, AQSh, Janubiy Koreya, Rossiya, Italiya, Niderlandiya, Belgiya, Turkiya, Fransiya, Xitoy va boshqa mamlakatlar. O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida keyingi yillarda muhim tarkibiy o‘zgarishlar bo‘lmoqda. O‘zbekiston dunyoning 140 dan ortiq mamlakati bilan savdo-sotiq qilmoqda⁷⁴.

1993-yilda Turkiyaning “Deri-maksan” firmasi bilan terini qayta ishlovchi zavod, Germaniyaning “Universal” firmasi bilan junni tozalab, xomashyo oluvchi liniyalar qurilishi ham boshlandi⁷⁵.

1994-yilda “Agama” qo‘shma korxonasi 250 ming dollarlik ustki kiyimlar, 50 ming dollarlik paypoq mahsulotlarini chetga eksport qildi. “Karakaral” qo‘shma korxonasi filialida oyoq kiyimlari tayyorlash uchun teri mahsulotlarini qayta ishlovchi baza yaratildi. Viloyatda “Tadbirkorbank” filiali tashkil etildi. Ushbu bank tomonidan kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 350 million so‘m miqdorida kredit ajratildi⁷⁶.

1995-yilda Nurota tumanida Kipr davlati bilan hamkorlikda “Nurota-Runo” junni qayta ishlash fabrikasi tashkil etildi. Ushbu korxona 170 tonna junni qayta ishlash quvvatiga ega bo‘lib, 100 ming dollarlik chet el texnologiyasi asosidagi dastgohlar bilan jihozlandi⁷⁷.

1996-yilda Navoiy viloyatida olib borilayotgan tashqi iqtisodiy aloqalar natijasida jami tashqi savdo aylanmasining hajmi 472,3 mln AQSh dollariga teng yoki 1995-yilga qaraganda 2,6 barobar ko‘p bo‘ldi. Uning 205,6 mln AQSh dollari eksportni (3,6 barobar oshdi) va 267,0 mln AQSh dollari importni (2,1 marta oshgan) tashkil etdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasidagi asosiy hamkorlari Rossiya (20 foiz), Buyuk Britaniya (28 foiz), Qozog‘iston (21 foiz), AQSh (12 foiz), Shveytsariya (3,5 foiz) va Yaponiya (2,5 foiz) kabi davlatlar bo‘lishdi⁷⁸.

2020-yilda Navoiy viloyatida Xitoyning “Youkang Agriculture” korxonasi 10 million dollarlik investitsion loyiha, ya’ni 10 ming tonnagacha baliq sanoati uchun zarur bo‘lgan yem mahsulotlarini ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan zavod hamda Qiziltepa tumanidagi To‘dako‘l suv havzasida besh ming tonna baliq o‘stirish imkoniyati bo‘lgan baliqchilik fermasi qurildi⁷⁹.

2022-yilda “O‘zcharsanoat” uyushmasi va Koreya Respublikasining “Selen CO LTD” kompaniyasi rahbari Kim Xyunxeyui tomonidan mamlakatimizning charm-poyabzal va mo‘ynachilik sanoatiga “Navoiy” EIZ hududida “Nav Silin” MChJ QK yangi korxonasi tashkil etildi. Yangi loyiha faoliyati asosan sintetik ip

⁷⁴ Ўзбекистон Республикаси. Энциклопедик маълумотнома. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 333.

⁷⁵ Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 4-ish, 37-varaq

⁷⁶ O‘sha manba, 31-ish, 62-varaq

⁷⁷ O‘sha manba, 135-ish, 19-varaq

⁷⁸ O‘sha manba, 247-ish, 11-varaq

⁷⁹ Xitoylik tadbirkorlar Navoiyda qo‘shma korxona tashkil etdi. Yangi O‘zbekiston. 2020-yil 15-dekabr. URL: <https://yuz.uz/uz/news/xitoylik-tadbirkorlar-navoiyda-qoshma-korxona-tashkil-etdi>

ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan. Loyiha qiymati 6 million dollarni tashkil etadi. Bu yerda yiliga 120 tonna mahsulot ishlab chiqariladi. Yangi qo‘shma korxona to‘liq quvvatda 2023-yilda foydalanishga topshirildi. Natijada 200 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi⁸⁰.

Bizga ma‘lumki, kichik va xususiy korxonalarning salmog‘i qanchalik oshib bormasin, aholini ish bilan ta‘minlash, sifatli va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishda yirik korxonalarning roli katta. Navoiy viloyatida ham shu turdagi yengil va oziq-ovqat sanoatining yirik korxonalari soni yil sayin ko‘payib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan to‘qimachilik, tikuv-trikotaj, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, aholini ish bilan ta‘minlash masalalari yuzasidan qabul qilingan qaror va farmonlar o‘z samarasini bera boshladi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida pilla yetishtirish va eksport qilish ko‘rsatkichlari keskin tushib ketdi. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan taraqqiyot sohasidagi ishlar natijasida bu soha yangi burilish pallasiga o‘tdi. Xitoy Xalq Respublikasi bilan o‘zaro hamkorlik ishlari yo‘lga qo‘yildi. Ipakchilik mavsumiylikdan doimiylikka o‘tdi. Pilla chilik majmualari qoshida parrandachilik, asalarichilik, chorvachilik va quyonchilik sohalari ham rivojlantirildi.

XULOSA

O‘zbekistonda yengil va oziq-ovqat sanoatlarining rivojlanish tarixiga (1991–2023-yy. Navoiy viloyati misolida) bag‘ishlangan tadqiqot natijalarini tahlil qilish orqali quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Sovet davrida, asosan, qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashtirilgan viloyatda mustaqillikning dastlabki yillaridayoq qator o‘zgarishlar uchun zamin tayyorlandi. Avvalo, Navoiy viloyatining soha imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning huquqiy asoslari shakllantirildi. Ikkinchidan, mulkka egalikning o‘zgarishi bilan tizimda rivojlanish uchun qator imtiyozlar ishlab chiqildi. Mazkur islohotlar barobarida yengil va oziq-ovqat sanoatlarida muhim tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilib, agrar tarmoqdan sanoatlashgan hudud sifatida shakllanish pallasiga qadam qo‘ydi.

2. Viloyat xalq xo‘jaligida paxtachilik muhim soha hisoblanadi. Mustaqillikdan so‘ng fermer xo‘jaliklarining tashkil etilishi, yerga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi, sohada ijobiy yangilanishlar ko‘lamini kengaytirdi. Natijada, asosiy tarmoq sifatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan paxta zavodlari zamonaviy texnikalar bilan jihozlandi. Yetishtirilgan xomashyodan yengil sanoat korxonalarida zamonaviy va sifatli mahsulot turlarini ko‘paytirishga e‘tibor qaratildi.

3. Navoiy viloyatida to‘qimachilik industrial siklining shakllanish jarayoni ham oson kechmadi. Chunki uni rivojlantirish uchun yuqori texnologiyalar bilan jihozlash zarur bo‘lib, bu holat juda katta miqdordagi mablag‘ni talab etgan. Tarmoqqa xususiy sektorning jalb qilinishi bilan ichki ehtiyojlardan ortishi,

⁸⁰ Koreyalik ishbilarmonlar Navoiy viloyatida yangi qo‘shma korxona tashkil etadi. Yangi O‘zbekiston. 2022-yil 24-mart. URL: <https://yuz.uz/uz/news/koreyalik-ishbilarmonlar-navoiy-viloyatida-yangi-qoshma-korxona-tashkil-etadi>

eksport ko'lamining ko'payishi, bir tomondan, ishsizlikning kamayishiga, ikkinchi tomondan, viloyat budgetining yaxshilanishiga imkoniyat yaratildi. Yengil sanoatda ipakchilik klasterining shakllanishi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon bozorida o'z xaridorini topishi viloyatda ipakchilik sohasini muhim tarmoqqa aylantirdi.

4. Mintaqada aholi sonining ortib borishi oziq-ovqat zaxirasining yaratilishi muhim vazifalardan biri ekanligini ko'rsatmoqda. Bu esa, ilmiy asosga ega istiqbolli islohotlarni o'tkazishni taqozo etadi. Shu sababdan ham oziq-ovqat sanoatining ertasi qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishiga bog'liqligini tushunib yetgan soha mutaxassisleri yangi hosildor navlar va zotlarni yaratish ustida ilmiy izlanishlar olib bordi va bu yengil va oziq-ovqat sanoatlarining xomashyoga bo'lgan ehtiyojini qondirish imkonini berdi.

5. Mustaqillikkacha viloyatda oziq-ovqat sanoatining yetakchi tarmog'i yog'-moy sanoati hisoblanib, ularning ishlash tizimi eskicha qolmoqda edi. Aholi tomonidan ushbu sanoatga ehtiyojning ortishi tarmoqqa yangi zamonaviy texnologiyalarni qo'llash zaruratini tug'dirdi. Natijada, xorijiy hamkorlar bilan olib borilgan izlanishlar asosida xomashyo muammosini hal qilish va undan unumli foydalangan holda yog'-moyga bo'lgan talabni hududda yetishtirilayotgan mahsulotlarni qayta ishlash hisobiga qondirishga erishildi.

6. Viloyat iqlimining qulayligi qishloq xo'jaligi sohasida bir yilda bir necha bor hosil yetishtirish imkonini beradi. Shu boisdan viloyatda yerga ishlov berish va mo'l hosil olish maqsadida ekin ekiladigan unumdor yerlarning o'z sohasini yaxshi biladigan kasb egalariga berilishi, qisqa vaqt ichida meva-sabzavot va uni qayta ishlash sanoatida tub sifat o'zgarishlariga olib keldi.

7. Yangi O'zbekiston strategiyasida ko'rsatib o'tilgan yengil va oziq-ovqat sanoatlarida hududiy klasterlar faoliyatini yo'lga qo'yish dolzarb vazifalardan biridir. Ular qisqa vaqt ichida son va sifat jihatdan o'sishga erisha oldi. Albatta, mazkur jarayonda davlat tomonidan uning huquqiy asoslari yaratilishi va qo'llab-quvvatlanishi klasterlarga keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Shuningdek, viloyatda agrologistika tizimini jahon andozalariga mos ravishda tashkil etish, uning istiqbollari haqida mavjud imkoniyatlarga asoslangan holda ma'lumotlarni taqdim etish dolzarb masalalardan biriga aylandi.

8. Navoiy viloyati iqtisodiyotida yengil va oziq-ovqat sanoatlari muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olgan holda qo'shma korxonalar sonini ko'paytirish, viloyatga tashqi investitsiyalarni kiritish, jahon bozoriga xaridorgir, sifatli mahsulotlar bilan chiqishni davrning o'zi taqozo etdi. Viloyatda tadqiq qilingan yillarda qo'shma korxonalar sonining kun sayin ko'payib, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat darajasi o'sib borganligini ko'rish mumkin.

Tadqiqot materiallari va olingan natijalar asosida quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Navoiy viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxta navlaridan olinadigan tolalardan eksport uchun mo'ljallangan raqobatbardosh tovarlarni ishlab

chiqarishga o'tkazish uchun hududdagi to'qimachilik korxonalarida diversifikatsiyalash tamoyillarini tezkorlik bilan joriy etish;

2. Yengil va oziq-ovqat sanoatlarida munosib raqobatlasha oladigan milliy brendlarning jahondagi nufuzini oshirish hamda tashqi investitsiyalarni jalb etishda marketing strategiyalarini shakllantirish va forumlar o'tkazish.

3. Navoiy viloyatida yetishtirilayotgan poliz va meva mahsulotlarini ko'paytirish va jahon bozoriga chuqurroq kirib borish uchun kuz oylarida xalqaro gastro- va ekoturizmga oid ko'rgazmalar, festivallarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Tar.08.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХАЛИКУЛОВ ШУХРАТЖОН БОЙМУХАММАДОВИЧ

**ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ПИЩЕВОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА
(1991-2023 гг., НА ПРИМЕРЕ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ)**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам**

Бухара – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована за номером B2024.3.PhD/Tar2042 в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (русском, узбекском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета Бухарского государственного университета (www.buxsu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Ботирова Халима Эшмаматовна,
доктор философии по историческим наукам,
доцент

Официальные оппоненты:

Аминова Азиза Марксовна,
доктор исторических наук (DSc), доцент

Раупов Сохиб Саидович,
кандидат исторических наук, профессор

Ведущая организация:

**Координационно-методический центр
по вопросам новейшей истории Узбекистана**

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2026 года в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.TAR.08.01 по присуждению учёных степеней при Бухарском государственном университете (адрес: 200118, город Бухара, улица М. Икбола, дом 11. Тел.: (65) 221-29-14; факс: (65) 221-57-07; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована под № _____; адрес: 200118, город Бухара, улица М. Икбола, дом 11. Тел.: (65) 221-29-14; факс: (99865) 221-27-07).

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2026 года.
(реестровый протокол № _____ от « ____ » _____ 2026 года).


А.Т. Очилов,
Председатель научного совета по
присуждению учёных степеней,
доктор исторических наук (DSc),
профессор
Б.Б. Болтаев,
Секретарь научного совета по
присуждению учёных степеней,
доктор философии (PhD) по
историческим наукам, доцент
Қ.Р. Рахимов,
Председатель научного семинара
при научном совете по
присуждению учёных степеней,
доктор исторических наук (DSc),
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Обеспечение населения мира экологически чистыми продуктами питания и качественной продукцией легкой промышленности признано глобальной проблемой в рамках Целей развития тысячелетия ООН. Растущие требования в этом направлении требуют модернизации производственных процессов предприятий пищевой и легкой промышленности, их регулярного переоснащения современным, энергосберегающим и высокопроизводительным технологическим оборудованием. Поэтому изучение вопросов повышения качества продукции, повышения конкурентоспособности и обеспечения устойчивого развития для социальной жизни является актуальным.

В высших учебных заведениях и ведущих научно-исследовательских центрах развитых стран мира ведутся плодотворные исследования по изучению проблем дефицита легкой и пищевой промышленности, продовольственной безопасности, качества сельскохозяйственной продукции и глобальных продовольственных проблем. В результате был получен ряд данных о развитии промышленности, включая модернизацию легкой и перерабатывающей промышленности, регулировании международной торговли продовольственными и непродовольственными товарами, а также истории производства продуктов питания и развития агропромышленного комплекса в сельских районах. Однако структурные изменения в легкой и пищевой промышленности, необходимость решения проблем, связанных с растущими потребностями населения, а также необходимость постоянного мониторинга этой системы исторически обуславливают необходимость ее анализа.

Благодаря экономическим реформам, проводимым в Новом Узбекистане, созданы широкие возможности для дальнейшего развития легкой и пищевой промышленности. «Когда мы говорим о промышленности Навои, мы в основном имеем в виду такие крупные отраслевые предприятия, как Навоийский горно-металлургический комбинат, «Навоиюран», «Навоиазот», «Кызылкумцемент», и именно от деятельности этих предприятий зависят инвестиции, рабочие места и экономический рост. В результате проводимой работы по комплексному развитию регионов, диверсификации экономики и определению новых точек роста в 2025 году были привлечены региональные инвестиции, не зависящие от крупных отраслевых предприятий»¹. Актуальными вопросами являются освоение новых рубежей, расширение современных предприятий по переработке хлопкового сырья, расширение экспорта готовой продукции, проведение научных исследований, направленных на внедрение передовых инноваций,

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyev 2026-yil 10-fevral kuni Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan yig'ilish nutqidan. Url: <https://president.uz/oz/lists/view/8930>

соответствующих мировым стандартам, необходимых для легкой и пищевой промышленности.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, поставленных Указами Президента Республики Узбекистан № УП-5853 «О стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020–2030 годы» от 23 октября 2019 года, № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» от 28 января 2022 года, Постановлениями Президента Республики Узбекистан № ПП-4453 «О мерах по дальнейшему развитию легкой промышленности и стимулированию производства готовой продукции» от 16 сентября 2019 года, № ПП-430 «О дополнительных мерах по социально-экономическому развитию Навоийской области» от 12 декабря 2024 года, № ПП-58 «О мерах по устойчивому социально-экономическому развитию Навоийской области в 2026 году» от 11 февраля 2026 года и иными нормативно-правовыми актами, касающимися развития отрасли.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Пути формирования и реализации системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом развитии информатизированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. При определении степени изученности исследуемой проблемы целесообразно проанализировать литературу и научно-исследовательские работы по теме, разделив их на две группы. К первой группе относятся работы по теме, опубликованные в годы независимости, ко второй группе – зарубежные научные работы, непосредственно входящие в рамки данного исследования. История промышленности, занимающей важное место в экономической жизни каждого государства, в частности, легкой и пищевой, удовлетворяющей повседневные жизненные потребности населения, была основным объектом изучения не только историков, но и экономистов. Первая группа литературы и научных исследований была создана в годы независимости, и в ней отражаются реформы, проводимые в легкой и пищевой промышленности, проблемы отрасли и вопросы их решения².

² Абдуллаев А.Ш. Озиқ-овқат саноати ривожланиши ва жойланишининг иқтисодий географик хусусиятлари (Хоразм вилояти мисолида). География фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси. Урганч.: 2017 й.; Зиявитдинова Н.М. Озиқ-овқат саноати корхоналари фаолияти иқтисодий самарадорлигини ошириш. (Бухоро вилояти мисолида). Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Бухоро.: 2006 й.; Юсупов С.Ш. Кучли рақобат шароитида тўқимачилик саноати корхоналарини ривожлантириш стратегиялари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент. 2018 й.; Қаршиев Р.М. Навоий шахрининг иқтисодий-ижтимоий ва маданий тараққиёти: тажриба ва муаммолар (1958-1990 йй): Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. — Андижон: 1996. - 147 б.; Пардаев Т.Н. Перспективы развития аграрного сектора региона в условиях перехода к рыночной экономике (на примере Навоийской области): Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. -Ташкент: 1996. —124 с.; Кабулов С.К. Организационно-экономический механизм управления экономикой региона в условиях рынка (на примере Навоийской области): Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. — Ташкент: 1999.— 114 с.;

